



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 140 sahifa,
25-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Imkoniyati cheklangan talabalarda jismoniy sifatlarni sport mashg'ulotlari yordamida rivojlantirishning afzalliklari	8
Davronov Rustam Iloxovich	
Использование фонетических игр и современных технологий в обучении русскому языку в общеобразовательных школах Узбекистана	15
Абумалик Муталлиевич Дедаханов	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish muammo va yechimlar	20
Qudratov O'ktam G'ofurovich	
The Role of Motivation in Learning English	25
Kamoldinova Mushtariybonu Azizbek qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim muhitini boshqarishning ijtimoiy-pedagogik asoslari	30
Axrarova Gulrux Gulamkadirovna	
Bo'lajak logopedlarda metakognitiv-dagnostik kompetentlikni rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	37
Suvankulova Shaxnoza Karimkulovna	
Ingliz tili darslarida individual va pragmatik yondashuvni amalga oshirish texnologiyalari	43
Yuldasheva Dilnoza Bobojonovna	
Talabalarining texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari	48
Kushbakova Barno Batirkulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etishda ijtimoiy hamkorlik va jamoatchilik fikrini shakllantirish	54
Arslanova Madinaxon Mansurovna	
O'quvchi-yoshlarga axloqiy ta'lim-tarbiya berishda qoraqalpoq dostonlarining ahamiyati	59
Esemuratova Turganbike Aytmuratovna	
Talaba markazli yondashuv asosida ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi	63
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-6 yoshdagi bolalarni kasbga yo'naltirish bo'yicha metodik xizmatni takomillashtirish	67
Rizayeva Munisxon Maxkamovna	
Generativ sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari	71
Shodiyev Azizbek Olim o'g'li	
Shaxs kamolotida psixologik salomatlikning ahamiyati va asosiy ko'rsatkichlari	76
Xolova Yulduz Erkinovna	
Zamonaviy ta'lim paradigmasida fizika fanini o'qitish: virtual va to'ldirilgan borliq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining integrativ metodikasi	83
Zuhriddinov Farrux Faxriddin o'g'li	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	87
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual faolligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillar	90
Djurakulova Munira Suyunovna	
Ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlarni takomillashtirish modeli hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri	97
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Народное творчество как великое сокровище интеллектуального воспитания	102
Матмуратова Гулистан Камалатдиновна	
Raqamli intellekt: o'quvchilarda mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish – davr talabi	108
Nishonova Muattarxon Alisherovna, Toirova Nafisa Muzaffar qizi	



Umumta'lim fanlaridan dars samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari.....	111
Toshmamatova Munisa Toshmamatovna	
Xorazm viloyatida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari (tumanlar kesimida)	115
Xo'jyozova Dildora Shonazar qizi, Dusanova Sharofat Baltaboyevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ yondashuv asosida innovatsion tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	121
Kadirova Dildora Najadbekovna	
The Integration of Artificial Intelligence in English Language Teaching: Opportunities and Challenges	125
Moxinur Yusupova	
Pragmatik-tizimli portfolio (PTP) texnologiyasi: talabalar reflektiv tafakkurini faoliyat dalillari asosida rivojlantirish.....	131
Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna	
Sog'lig'ida cheklovlari mavjud bolalar jismoniy va psixologik holatini takomillashtirishda yengil atletika mashg'ulotlarining ahamiyati	136
Hikmatova Nigoraxon Hasanboy qizi	



PRAGMATIK-TIZIMLI PORTFOLIO (PTP) TEKNOLOGIYASI: TALABALAR REFLEKTIV TAFAKKURINI FAOLIYAT DALILLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada talabaning bajarilgan ishlarini jamlash bilan cheklanmaydigan, balki faoliyat-dalil-tahlil-baholash-korreksiya zanjirini boshqaradigan pragmatik-tizimli portfolio (PTP) mualliflik texnologiyasi nazariy jihatdan asoslandi. Tadqiqotning maqsadi PTPni reflektiv tafakkurning mantiqiy, analitik, kreativ va interpersonal jihatlarini bir vaqtda rivojlantiruvchi yaxlit didaktik mexanizm sifatida tavsiflashdan iborat. Strukturaviy-funksional tahlil, pedagogik loyihalash, qiyoslash va mezonli modellashirish metodlari qo'llanildi. Natijada PTPning maqsadli-diagnostik, faoliyat-pragmatik, daliliy-artefakt, reflektiv-analitik, interpersonal-teskari aloqa hamda korreksion-prognostik komponentlari ajratildi. Texnologiyaning ochiq siklli algoritmi va to'rt yo'nalishli baholash matritsasi ishlab chiqildi. Taklif etilgan yondashuv portfolioni hujjatlar arxividan talabaning o'z o'qishini boshqarishi, qarorlarini dalillashi va keyingi faoliyatini qayta loyihalashi uchun xizmat qiladigan pedagogik vositaga aylantiradi. PTPni "Pedagogik mahorat", metodika fanlari va pedagogik amaliyotda qo'llash mumkin.

Kalit so'zlar: pragmatik-tizimli portfolio, reflektiv tafakkur, o'z-o'zini baholash, faoliyat dalili, interpersonal teskari aloqa, pedagogik texnologiya, korreksiya, e-portfolio.

Abstract: The article theoretically substantiates the author's Pragmatic-Systemic Portfolio (PSP) technology, which goes beyond collecting completed assignments and manages the sequence of action, evidence, analysis, assessment, and correction. The study aims to describe PSP as an integrated didactic mechanism for the simultaneous development of logical, analytical, creative, and interpersonal dimensions of students' reflective thinking. Structural-functional analysis, pedagogical design, comparison, and criterion-based modelling were used. Six components were identified: goal-diagnostic, action-pragmatic, evidence-artifact, reflective-analytical, interpersonal-feedback, and correction-prognostic. An open-cycle implementation algorithm and a four-dimensional assessment matrix were designed. The proposed approach transforms a portfolio from a document archive into a tool for self-regulated learning, evidence-based decision-making, and redesigning subsequent professional action. PSP can be integrated into pedagogical mastery courses, methodology modules, and teaching practicum.

Key words: pragmatic-systemic portfolio, reflective thinking, self-assessment, evidence of action, interpersonal feedback, educational technology, correction, e-portfolio.

Аннотация: В статье теоретически обоснована авторская технология прагматико-системного портфолио (PTP), которая не сводится к накоплению выполненных работ, а управляет цепочкой "деятельность - доказательство - анализ - оценивание - коррекция". Цель исследования состоит в описании PTP как целостного дидактического механизма одновременного развития логического, аналитического, креативного и интерперсонального аспектов рефлексивного мышления студентов. Применены структурно-функциональный анализ, педагогическое проектирование, сравнительный метод и критериальное моделирование. Выделены целевой-диагностический, деятельностно-прагматический, доказательно-артефактный, рефлексивно-аналитический, интерперсональный и коррекционно-прогностический компоненты. Разработаны открытый циклический алгоритм технологии и четырехкомпонентная матрица оценивания. Предложенный подход преобразует портфолио из архива документов в инструмент управления собственным обучением, аргументации решений и проектирования последующего профессионального действия. Технология может применяться в курсе "Педагогическое мастерство", методических дисциплинах и педагогической практике.

Ключевые слова: прагматико-системное портфолио, рефлексивное мышление, самооценивание, доказательство деятельности, обратная связь, педагогическая технология, коррекция, электронное портфолио.

KIRISH

Oliy ta'limda talabanning o'z faoliyatini anglash, baholash va qayta tashkil etish qobiliyati kasbiy tayyor-
garlikning ajralmas shartiga aylanmoqda. Bilimni qayta aytib berish yoki alohida topshiriqni bajarish mutaxas-
sisning murakkab pedagogik vaziyatda qanday qaror qabul qilishini to'liq ochib bermaydi. Shuning uchun ta'lim
natijasini faqat yakuniy baho bilan emas, balki talabanning maqsad qo'yishi, dalil tanlashi, xatosini aniqlashi,
boshqa nuqtayi nazarni qabul qilishi va keyingi harakatini rejalashtirishi orqali kuzatish zarur. O'zbekiston ta'lim
siyosatida mustaqil fikrlash, amaliy kompetensiya va ta'lim oluvchining faol pozitsiyasiga berilayotgan e'tibor
ham mazkur ehtiyojni kuchaytiradi ^[1].

Portfolio texnologiyasi bu vazifani bajarish uchun qulay shakl bo'lsa-da, amaliyotda u ko'pincha sertifikat,
konspekt, taqdimot va nazorat ishlarining tartiblangan papkasiga aylanib qoladi. Bunday to'plam talabanning
nima bajarganini ko'rsatadi, biroq nima uchun aynan shu usulni tanlagani, natijaga qanday erishgani va keyingi
safar faoliyatini qanday o'zgartirishi haqida yetarli ma'lumot bermaydi. Pedagogik texnologiyaning maqsad,
mazmun, faoliyat, nazorat va natijani yagona tizimga bog'lash xususiyati ^[2; 3] portfolioni ham faqat mahsulot
emas, boshqariladigan o'quv jarayoni sifatida qayta talqin qilishni talab etadi.

Reflektiv tafakkur faoliyatning ichki mexanizmlarini anglash va ularni vaziyatga mos ravishda qayta qurish
bilan bog'liq. A.V. Karpov refleksiyaning faoliyatning metatizimli tartibga soluvchisi sifatida ko'rsatadi ^[5], T.F. Usheva
esa reflektiv ko'nikmalarni maqsadli shakllantirish va muntazam monitoring qilish zarurligini asoslaydi ^[6].

Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari o'quvchini loyiha, hamkorlik, muammoli vaziyat va elek-
tron muhitga jalb etishi mumkin ^[7], biroq ushbu vositalar o'z-o'zidan refleksiyaning kafolatlamaydi. Ularning natijasi
topshiriqdan keyingi tahlil, mezonli baholash va korreksiya bilan bog'langandagina barqaror reflektiv tajribaga
aylanadi.

Mazkur muammoni hal etish uchun pragmatik-tizimli portfolio (PTP) mualliflik texnologiyasi taklif etiladi.
"Pragmatik" belgi nazariy bilimning real pedagogik vaziyatda sinovdan o'tishi va aniq faoliyat dalili bilan tasdiqla-
nishini, "tizimli" belgi esa maqsad, topshiriq, artefakt, refleksiya, teskari aloqa, baholash va korreksiyaning
uzluksiz bog'lanishini anglatadi.

Tadqiqotning maqsadi PTPning didaktik tuzilmasi, amalga oshirish algoritmi va baholash mezonlarini
ilmiy asoslashdir.

Vazifalar:

- PTPga mualliflik ta'rifini berish;
- uning komponentlarini reflektiv tafakkurning to'rt jihati bilan bog'lash;
- ochiq sikllli ishlash tartibini ishlab chiqish;
- o'z-o'zini nazorat, tengdoshlar bahosi va pedagog ekspertizasini birlashtiruvchi matritsani tavsiflashdan
iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Portfolio texnologiyasi oliy ta'limda talabanning o'quv yutuqlarini baholash, kasbiy kompetensiyalarini rivoj-
lantirish hamda reflektiv faoliyatini qo'llab-quvvatlashning muhim vositalaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

S.N. Nishonova, M. Ochilov va N. Saidahmedov pedagogik texnologiyalarda maqsad, mazmun, jarayon va
natijaning uzviy bog'liqligini asoslab, ta'lim jarayonini tizimli tashkil etish zarurligini ta'kidlaydilar.

A.V. Karpov refleksiyaning faoliyatni boshqarish va qayta tashkil etishning metakognitiv mexanizmi sifatida
tavsiflaydi, T.F. Usheva esa reflektiv ko'nikmalarni muntazam monitoring qilish hamda baholashning ahamiya-
tini ko'rsatadi.

Shuningdek, E.S. Polat, M.Yu. Buxarkina va M.V. Klarin zamonaviy pedagogik texnologiyalar, loyiha faoli-
yati, hamkorlikdagi ta'lim va elektron ta'lim muhitlarining talabalarning mustaqil fikrlashi hamda reflektiv rivojla-
nishiga ijobiy ta'sirini qayd etadilar.

Biroq mavjud tadqiqotlarda portfolio ko'proq baholash vositasi sifatida yoritilgan bo'lib, uni reflektiv tafak-
kurni faoliyat dalillari asosida boshqaruvchi yaxlit pedagogik texnologiya sifatida tavsiflovchi modellar yetarli
darajada ishlab chiqilmagan. Shu jihatdan pragmatik-tizimli portfolio (PTP) texnologiyasini ishlab chiqish ilmiy
va amaliy ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-metodologik va pedagogik dizayn xarakteriga ega. Manbalar korpusi milliy pedagogik
texnologiyalar maktabini ifodalovchi uchta o'quv qo'llanma ^[2-4], reflektiv mexanizmlar va ularni monitoring
qilishga bag'ishlangan ikki rus tilidagi manba ^[5; 6], shuningdek, innovatsion hamda axborot-pedagogik modellarni
yorituvchi ikki tadqiqot ^[7; 8] asosida shakllantirildi. Manbalarni tanlash mezonlari: portfolioni faoliyat texnologi-



yasi sifatida talqin qilish imkoniyati, refleksiyaning kuzatiladigan ko'rsatkichlarini ajratish va talabning mustaqil o'quv harakatlarini loyihalashga metodik asos bera olishi.

Kontent-tahlil yordamida manbalardagi "maqsad", "faoliyat", "dalil", "refleksiya", "baholash" va "korreksiya" birliklari ajratildi. Qiyosiy tahlil an'anaviy portfolio bilan rivojlantiruvchi portfolio o'rtasidagi farqlarni belgilashga xizmat qildi. Strukturaviy-funksional modellashtirishda har bir komponentning kirish ma'lumoti, pedagogik vazifasi, talaba harakati va kuzatiladigan natijasi aniqlashtirildi. Pedagogik loyihalash metodi orqali PTPning ochiq sikli hamda portfolioga kiritiladigan majburiy artefaktlar ishlab chiqildi. Mezonli modellashtirishda mantiqiy, analitik, kreativ va interpersonal refleksiyaning indikatorlari faoliyat dalillari bilan bog'landi.

Tadqiqot biror guruh bo'yicha miqdoriy samaradorlikni da'vo qilmaydi; uning natijasi keyingi tajriba-sinov uchun tekshiriladigan didaktik konstruksiyadir. Modelning ichki ishonchliligi uch talab asosida nazorat qilindi: birinchidan, har bir maqsadga mos faoliyat va dalil mavjud bo'lishi; ikkinchidan, baholash xulosasi aniq artefaktga tayangan bo'lishi; uchinchidan, aniqlangan kamchilik keyingi vazifa yoki shaxsiy rivojlanish rejasida aks etishi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pragmatik-tizimli portfolio talabning kasbiy yo'naltirilgan topshiriqlarni bajarish jarayonini maqsad qo'yishdan boshlab korreksiyagacha boshqaradigan, faoliyat mahsulotlari va reflektiv izohlarni yagona daliliy tizimda jamlaydigan mualliflik pedagogik texnologiyasidir. Unda portfolio yakuniy ko'rgazma emas, balki talabning o'z o'qishini tartibga soluvchi "ishchi laboratoriya" vazifasini bajaradi. Har bir material uch savolga javob berishi shart: qanday vazifa bajarildi; qaror qaysi dalil bilan asoslandi; olingan tajriba keyingi faoliyatni qanday o'zgartiradi.

PTPning didaktik birligi alohida hujjat emas, "faoliyat paketi"dir. Bunday paket muammoli topshiriq, talabning dastlabki qarori, jarayon dalili, tayyor mahsulot, o'z-o'zini tahlil qilish yozuvi, tengdosh yoki pedagog fikri va korreksiya rejasidan tashkil topadi. Shu tuzilma talabning natijani bezashga emas, qaror qabul qilish mantiqini ochishga e'tiborini qaratadi.


Jadvalda komponentlar ketma-ketligi bir yo'nalishli emasligi ko'rinadi: korreksion natija yangi diagnostika va maqsadga qaytadi. Shu sababli PTP yopiq hisobot emas, takrorlanuvchi rivojlanish tizimidir.

PTP olti bosqichda ishlaydi. Diagnostika bosqichida talaba muayyan kompetensiya bo'yicha boshlang'ich holatini dalil bilan tavsiflaydi. Ikkinchi bosqichda nazariy bilimni qo'llashni talab qiladigan kasbiy muammo beriladi. Uchinchi bosqichda talaba faoliyatni bajaradi va natijani tasdiqlovchi artefaktlarni shakllantiradi. To'rtinchi bosqichda u o'z qarorining kuchli va zaif jihatlarini tahlil qiladi. Beshinchi bosqichda tengdosh va pedagog fikri olinadi. Oltinchi bosqichda esa muayyan o'zgarishlar rejalashtirilib, yangilangan maqsad belgilanadi.

Mazkur algoritmda teskari aloqa umumiy maqrov yoki kamchiliklar ro'yxati sifatida emas, uch qismli formatda beriladi:

- kuzatilgan dalil;
- uning mezonga munosabati;
- keyingi harakat bo'yicha tavsiya.

Masalan, "taqdimot yaxshi" o'rniga "muammo sababi ikki dalil bilan asoslangan, biroq muqobil qarorlar solishtirilmagan; keyingi variantda kamida ikki yechimni afzallik va cheklovlari bo'yicha taqqoslash zarur" tarzidagi fikr qo'llanadi.



PTPning ochiq sikli: natija yakun emas, keyingi rivojlanish uchun dalildir

1-rasm: PTP texnologiyasining ochiq siklli algoritmi

PTPning tarkibi sakkiz bo'limdan iborat:

- individual maqsad xaritasi;
- muammoli vazifa va dastlabki faraz;
- faoliyat mahsuloti;
- jarayon dalillari;
- reflektiv kundalik;
- tengdoshlar teskari aloqasi;
- pedagog ekspertizasi;
- korreksiya va yangilangan mahsulot.

Talaba barcha materialni emas, rivojlanish dinamikasini ko'rsatuvchi dalillarni tanlaydi. Har bir artefaktga qisqa analitik izoh biriktiriladi: "Nima uchun tanladim?", "Qaysi kompetensiyani ko'rsatadi?", "Qanday o'zgarish yuz berdi?".

Baholash natijaga berilgan bitta ballga qisqartirilmaydi. To'rt jihat alohida ko'rib chiqiladi va ular o'z-o'zini baholash, tengdoshlar bahosi hamda pedagog ekspertizasi orqali uch manbadan tekshiriladi. Bu integratsiya talabani o'ziga ortiqcha yuqori yoki past baho berish xavfini kamaytiradi, bahoni dalil bilan muhokama qilish madaniyatini shakllantiradi. Har bir indikator 0–3 oralig'ida baholanib, ballga albatta qisqa daliliy izoh qo'shiladi. Yakuniy xulosa uch baholovchi manba o'rtasidagi tafovut va uning sabablarini muhokama qilish bilan chiqariladi.

"Pedagogik mahorat" fanida "Murakkab sinf vaziyatida pedagogik muloqot" mavzusi bo'yicha talaba qarama-qarshi manfaatlar mavjud bo'lgan keysni tahlil qiladi. Dastlab u muammoni bir jumlada ifodalab, ikkita ehtimoliy yechimni taklif etadi. Keyin kichik guruhda rol ijrosi o'tkazilib, jarayon video yoki kuzatuv varaqasi bilan qayd etiladi. Talaba o'z nutqi, savol berish usuli, tinglash darajasi va qarorining oqibatlarini tahlil qiladi. Tengdoshi bir kuchli jihat, bir asoslangan savol va bir rivojlantiruvchi tavsiya beradi. Yakunda talaba muloqot strategiyasini qayta ishlab, dastlabki va yangilangan variant o'rtasidagi farqni izohlaydi.

Mazkur faoliyat paketida mantiqiy jihat qarorning sabab-oqibat aloqalarida, analitik jihat vaziyat va xatolarni ajratishda, kreativ jihat yangi muloqot strategiyasini ishlab chiqishda, interpersonal jihat esa tinglash va teskari aloqani qabul qilishda namoyon bo'ladi. Demak, to'rt jihat alohida mashqlar bilan parchalab yuborilmay, bitta kasbiy muammo doirasida integratsiyalashadi.

PTPning an'anaviy portfoliodan asosiy farqi saqlanadigan material sonida emas, materiallar o'rtasidagi didaktik aloqadadir. An'anaviy model "nima to'plandi?" savoliga, PTP esa "qanday o'zgarish yuz berdi va bu o'zgarish qaysi dalil bilan tasdiqlanadi?" savoliga javob beradi. Bu yondashuv milliy pedagogik texnologiyalar adabiyotida qayd etilgan maqsad, jarayon va natija birligini ^[2-4] reflektiv boshqaruv bilan kengaytiradi. Karpovning refleksiyaning faoliyatni qayta tashkil etuvchi mexanizm sifatida talqin qilishi ^[5] hamda Ushevaning reflektiv ko'nikmalarni monitoring qilish g'oyasi ^[6] PTPning nazariy tayanchini tashkil etadi.

Polat va Buxarkina zamonaviy texnologiyalarda loyiha, hamkorlik va axborot muhitining ahamiyatini ko'rsatadi ^[7]. PTP ushbu vositalardan birini tanlash bilan cheklanmaydi: loyiha, keys, mikrota'lim, videokuzatuv yoki e-portfolio qaysi reflektiv harakatni yuzaga keltirishi va qanday dalil bilan baholanishini oldindan belgilaydi. Klarinning innovatsion modellar haqidagi qarashlari ^[8] bilan uyg'un ravishda, texnologiya talabani tayyor algoritmlarni takrorlashidan ko'ra, o'z tajribasini qayta qurishiga yo'naltiriladi.

PTPning kuchli jihatlari rivojlanish dinamikasining ko'rinishi, o'z-o'zini nazoratning tashqi baholash bilan muvozanatlanishi, individual va guruhli refleksiyaning birlashishi hamda nazariya bilan amaliyot o'rtasidagi uzilishning kamayishidir. Shu bilan birga, texnologiya bir qator xavflarga ega. Mezonlar noaniq bo'lsa, reflektiv yozuvlar umumiy taassurotga aylanadi; artefaktlar ko'payib ketsa, portfolio yana arxivga aylanadi; etik qoidalar belgilanmasa, tengdoshlar bahosi shaxsiy munosabat ta'sirida qolishi mumkin. O'qituvchi uchun materiallarni ko'rib chiqish yuklamasi ham ortadi.

Mazkur cheklovlarni kamaytirish uchun to'rtta shart zarur:

- majburiy artefaktlar sonini cheklash;
- har bir topshiriqda bir yoki ikki ustuvor indikatorni tanlash;
- teskari aloqa uchun dalil-mezon-tavsiya formatini qo'llash;
- raqamli platformada versiyalar tarixini saqlash.

PTPni baholash vositasi sifatida emas, avvalo, rivojlantiruvchi o'quv muhit sifatida joriy etish lozim. Uning real ta'siri nazorat va tajriba guruhlari, ekspertlararo moslik hamda talabalarning reflektiv yozuvlari dinamikasini o'rganadigan alohida empirik tadqiqotda tekshirilishi kerak.



XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Pragmatik-tizimli portfolio talabani ishlarini saqlash shakli emas, maqsad, faoliyat, dalil, tahlil, baholash va korrektsiyani yagona ochiq siklda boshqaruvchi mualliflik pedagogik texnologiyasidir.
2. PTPning olti komponentli tuzilmasi reflektiv tafakkurning mantiqiy, analitik, kreativ va interpersonal jihatlari bitta kasbiy vazifa doirasida integratsiyalash imkonini beradi.
3. Texnologiyada har bir xulosa tekshiriladigan artefaktga, har bir baho esa mezon va qisqa izohga tayanadi. Shu sababli o'z-o'zini nazorat formal hisobotdan dalilli refleksiya o'tadi.
4. O'z-o'zini baholash, tengdoshlar teskari aloqasi va pedagog ekspertizasining birlashtirilishi baholashning beryoqlamaligini kamaytiradi hamda interpersonal refleksiya rivojlantiradi.
5. PTPni samarali joriy etish uchun artefaktlar sonini me'yorlash, aniq rubrikalar, etik teskari aloqa va versiyalar tarixini saqlaydigan elektron muhit talab etiladi.
6. Taklif etilgan model nazariy-dizayn natijasi bo'lib, uning ta'limiy samaradorligi keyingi bosqichda eksperimental guruhlar, ekspertlararo moslik va reflektiv matnlar dinamikasi orqali tekshirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. - 160 b.
3. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M.H. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - Toshkent: Fan, 2006. - 261 b.
4. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. - Toshkent: Iste'dod, 2008. - 180 b.
5. Карпов А.В. Психология рефлексивных механизмов деятельности. - Москва: Институт психологии РАН, 2004. - 422 с.
6. Ушева Т.Ф. Формирование и мониторинг рефлексивных умений учащихся: методическое пособие. - Красноярск, 2007. - 88 с.
7. Полат Е.С., Бухаркина М.Ю. Современные педагогические и информационные технологии в системе образования. - Москва: Академия, 2010. - 368 с.
8. Кларин М.В. Инновационные модели обучения: исследование мирового опыта. - Москва: Луч, 2016. - 640 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.